
Semantic analysis of the possibility and probability meanings of the modal verb “can” (a comparative study of English and Uzbek)

Rakhimova Mekhribon Allayarovna
uzteacher1221@gmail.com
3rd-year PhD student,
Urgench State University named after
Abu Rayhan Beruni

- Annotation** *This article provides a detailed analysis of the semantic features of the English modal verb can related to possibility and probability on the basis of modern theories of modality, and comprehensively examines its functional equivalents in Uzbek from a comparative-typological perspective. In order to explore the phenomenon from several angles, the study employs comparative-typological, semantic-componential (semic) and corpus analysis methods. It is substantiated that the ability, root possibility and permission meanings inherent in the verb can are expressed in Uzbek by a range of distinct devices, namely the form -a/-y ol-, the word mumkin, and the construction -sa bo'l-. Furthermore, it is established that in English the verb can cannot express epistemic probability, this function being taken over by the modal verbs may and might, whereas in Uzbek probability is conveyed through separate lexical and morphological means such as ehtimol, balki, and the affix -dir. The results of the study, obtained on the basis of the semantic map of modality and the analysis of differential semes, reveal both the similar and the different aspects of the field of possibility and probability in the two languages under comparison. The conclusions obtained are of considerable theoretical and practical significance for comparative grammar, translation studies and the methodology of teaching English as a foreign language.*
- Keywords** *Modality, possibility, probability, semantic map, seme (componential) analysis, comparative-typological analysis*

«Can» modal fe'lining mumkinlik va ehtimollik ma'nolarining semantik tahlili (ingliz va o'zbek tillari qiyosida)

Rahimova Mexribon Allayarovna
uzteacher1221@gmail.com
3-kurs tayanch doktoranti,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
Davlat Universiteti

- Annotatsiya** *Mazkur maqolada ingliz tilidagi can modal fe'lining mumkinlik va ehtimollik bilan bog'liq semantik xususiyatlari zamonaviy modallik nazariyalari asosida batafsil va izchil tahlil qilinadi hamda uning o'zbek tilidagi funksional muqobillari qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan har tomonlama o'rganiladi. Tadqiqotda o'rganilayotgan hodisani turli qirralardan yoritish maqsadida qiyosiy-tipologik, semantik-komponent (sema) va korpus tahlili usullaridan foydalanilgan. Can fe'liga xos qobiliyat, root (real) imkoniyat va ruxsat ma'nolari o'zbek tilida -a/-y ol- shakli, mumkin so'zi hamda -sa bo'l- qurilmasi kabi turli vositalar bilan ifodalanishi asoslab beriladi. Shuningdek, ingliz tilida can epistemik ehtimollikni ifodalay olmasligi va bu vazifani may hamda might fe'llari bajarishi, o'zbek tilida esa ehtimollikning ehtimol, balki so'zlari va -dir yuklamasi kabi alohida leksik va morfologik vositalar orqali ifodalanishi aniqlanadi. Modallikning semantik xaritasi va differensial semalar*

tahliliga asoslangan tadqiqot natijalari ikki tildagi imkoniyat hamda ehtimollik maydonining o'xshash va farqli jihatlarini, shuningdek ma'no-shakl munosabatlaridagi nosimmetriklikni ochib beradi. Olingan xulosalar qiyosiy grammatika, tarjimashunoslik va ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar *Modallik, mumkinlik, ehtimollik, semantik xarita, sema tahlili, qiyosiy-tipologik tahlil*

Семантический анализ значений возможности и вероятности модального глагола «Can» (в сопоставлении английского и узбекского языков)

Рахимова Мехрибон Аллаярвна

uzteacher1221@gmail.com

*Базовый докторант 3-курса,
Ургенчский государственный университет
имени Абу Райхана Беруни*

Аннотация *В настоящей статье семантические особенности английского модального глагола can, связанные со значениями возможности и вероятности, подробно анализируются на основе современных теорий модальности, а его функциональные эквиваленты в узбекском языке всесторонне рассматриваются в сравнительно-типологическом аспекте. В ходе исследования были использованы методы сравнительно-типологического, семантико-компонентного (семного) и корпусного анализа, что позволило рассмотреть изучаемое явление с разных сторон. В работе обосновывается, что значения способности, коренной (root) возможности и разрешения, свойственные глаголу can, выражаются в узбекском языке различными средствами, а именно формой -a/-y ol-, словом tumkin, а также конструкцией -sa bo'l-. Кроме того, установлено, что в английском языке глагол can не способен выражать эпистемическую вероятность, и эту функцию берут на себя глаголы may и might, тогда как в узбекском языке значение вероятности передаётся отдельными лексическими и морфологическими средствами, такими как ehtimol, balki и аффикс -dir. Результаты исследования, полученные на основе семантической карты модальности и анализа дифференциальных сем, раскрывают как сходные, так и различные аспекты поля возможности и вероятности в двух сопоставляемых языках, а также асимметрию отношений между значением и формой. Полученные выводы имеют важное теоретическое и практическое значение для сопоставительной грамматики, переводоведения и методики преподавания английского языка как иностранного.*

Ключевые слова *Модальность, возможность, вероятность, семантическая карта, семный анализ, сравнительно-типологический анализ*

Ingliz tilidagi *can* modal fe'li o'zbek tilshunosligida asosan o'zbekcha muqobillari orqali, ya'ni qiyosiy grammatika qo'llanmalari va tarjimashunoslik doirasida o'rganib kelingan. An'anaviy ikki tilli grammatikalarda *can* odatda «qila olmoq» shaklida izohlanib, uning qobiliyat ma'nosi o'zbekcha *-a/-y* ol-analitik shakliga, imkoniyat ma'nosi esa mumkin modal so'ziga tenglashtiriladi. Biroq bunday yondashuv ma'no-shakl munosabatining murakkabligini hisobga olmaydi va *can* fe'lining semantik tarkibini tipologik nazariyalar asosida ochib bermaydi. Modallik tilning universal kategoriyalaridan biri bo'lib, so'zlovchining bayon etilayotgan voqelikka yoki uning rostligiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Mantiqiy nuqtayi nazardan u ikki asosiy domenga, imkoniyat va zaruriyat domenlariga bo'linadi. Mazkur maqola imkoniyat domeniga, xususan uning mumkinlik (real imkoniyat) va ehtimollik (epistemik imkoniyat) qirralariga bag'ishlanadi, chunki aynan shu ikki qirra *can* modali va uning o'zbekcha muqobillari misolida eng yorqin namoyon bo'ladi.

Imkoniyat va zaruriyat domenlari o'zaro mantiqiy munosabatda bo'lib, imkoniyat domeni ichida ham ikki qatlam ajratiladi. Birinchi qatlam real yoki root imkoniyat bo'lib, u voqelikdagi shart-sharoit, sub'ekt qobiliyati yoxud ijtimoiy me'yorga tayanadi va harakatning yuz berishi mumkinligini xolis qayd etadi. Ikkinchi qatlam epistemik imkoniyat, ya'ni ehtimollik bo'lib, u so'zlovchining propozitsiya rostligiga bo'lgan mulohazasini aks ettiradi. Bu ikki qatlam ko'p tillarda bir xil yoxud yaqin vositalar bilan ifodalanib, ular o'rtasida diaxron va sinxron ko'chishlar kuzatiladi. Ingliz tilida *can* birligi birinchi qatlamda faol bo'lsa-da, ikkinchi qatlamga o'tolmaydi; aynan shu chegara mazkur tadqiqotning diqqat markazida turadi.

Maqolaning maqsadi *can* fe'lining mumkinlik va ehtimollik bilan bog'liq ma'nolarini zamonaviy modallik nazariyalari

asosida tahlil qilish hamda uning o'zbek tilidagi funksional muqobillari bilan qiyosini ilmiy asoslashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi: a) *can* fe'lining semantik tarkibini aniqlash; b) uning qobiliyat, imkoniyat va ruxsat ma'nolarini o'zbek tilidagi muqobil vositalar bilan qiyoslash; d) ikki tilda imkoniyat va ehtimollikning shakliy taqsimlanishidagi o'xshashlik va tafovutlarni belgilash.

O'zbek tilshunosligida mumkinlik va ehtimollik modalligi mustaqil ravishda jiddiy o'rganilgan. A. Hojiyev modal ma'no ifodalovchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalarni, jumladan kerak, mumkin, lozim birliklarini tahlil qilgan (Hojiyev, 1973). Sh. Rahmatullayev ehtimol, balki kabi birliklarni fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar guruhiga, mumkin va kerak birliklarini esa alohida kesimlik leksemalari turkumiga ajratadi va ularning yetarli o'rganilmaganini ta'kidlaydi (Rahmatullayev, 2006). N. Mahmudov va A. Nurmonov gapning mazmuniy tuzilishi doirasida predikativlik va modallik munosabatini nazariy jihatdan asoslaydi (Mahmudov & Nurmonov, 1995).

Ingliz tilshunosligida modal fe'llar semantikasini korpus asosida o'rganishda J. Coatesning tadqiqoti tayanch ahamiyatga ega: u modal ma'nolarning qat'iy chegaralarga ega emasligini, ya'ni ma'no noaniqligi hodisasini loyqa to'plam nazariyasi yordamida tavsiflaydi hamda gradience, ambiguity va merger turlarini ajratadi (Coates, 1983). F.R. Palmer modallikni epistemik, deontik va dinamik turlarga ajratib, *can* ni asosan dinamik modallik doirasida ko'radi va dinamik imkoniyatni sub'ektga yo'naltirilgan hamda vaziyatli turlarga bo'ladi (Palmer, 2001). E. Sweetser root va epistemik ma'nolar bog'liqligini kuch-dinamikasi va metafora orqali izohlaydi (Sweetser, 1990). J. Bybee va hammualliflar diaxron-tipologik yondashuvda qobiliyatdan imkoniyatga, undan epistemik ma'noga o'tuvchi grammatikalizatsiya yo'lini ko'rsatadi

(Bybee et al., 1994). J. van der Auwera va V. Plungian imkoniyatning semantik xaritasini taklif etib, uni ishtirokchi-ichki, ishtirokchi-tashqi va epistemik imkoniyat tugunlarida joylashtiradi (van der Auwera & Plungian, 1998). J. Nuyts epistemik modallikni baholash shkalasi va (inter)sub'ektivlik tushunchasi orqali tahlil qiladi (Nuyts, 2001). Shunday qilib, o'zbek materialida mumkinlik va ehtimollik vositalari yetarlicha tavsiflangan bo'lsa-da, ularning can modali bilan tizimli, zamonaviy semantik nazariyalarga tayangan qiyosi amalga oshirilmagan. Aynan shu tadqiqot bo'shlig'i mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Sanab o'tilgan nazariy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi: Coates ma'no chegaralarining loyqaligini empirik asoslasi, Palmer modallik turlarining tizimli tasnifini beradi, Sweetser root va epistemik ma'nolar o'rtasidagi kognitiv ko'prikn ko'rsatadi, Bybee va hammualliflar bu ko'chishning diaxron yo'nalishini aniqlaydi, van der Auwera va Plungian esa uni universal semantik xarita ko'rinishida umumlishtiradi. Nuytsning baholash va (inter)sub'ektivlik tushunchalari epistemik zonaning ichki tabaqalanishini ochib beradi. Mazkur maqolada aynan shu olti ramka o'zbek tili materialiga birgalikda tatbiq etiladi, bu esa ilgari alohida-alohida qo'llanilgan yondashuvlarni yagona qiyosiy tahlil doirasida birlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy usullari qiyosiy-tipologik tahlil, semantik-komponent (sema) tahlili va korpus tahlili usullaridir. Tahlil deduktiv yo'nalishda, umumiy nazariy ramkadan aniq til faktlariga qarab amalga oshiriladi. Can modalini o'zbekcha muqobillari bilan qiyoslashda «bir shaklga bitta muqobil» tamoyiliga emas, balki funksional ekvivalentlik tamoyiliga tayaniladi: bitta ingliz birligi o'zbek tilida bir necha vositaga, aksincha, bir o'zbek vositasi bir necha ingliz birligiga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday yondashuv ma'no-shakl munosabatining nosimmetrikligini ochib berish imkonini beradi va tadqiqotning metodologik o'zagini tashkil etadi. Tadqiqot davomida mumkinlik va ehtimollik atamaları aniq

ajratiladi: mumkinlik ish-harakatning ob'ektiv shart-sharoit yoki sub'ekt qobiliyati asosida ro'y berishi imkonini bildiruvchi real (root) modallik turi, ehtimollik esa so'zlovchining propozitsiya rostligiga bo'lgan sub'ektiv bahosini ifodalovchi epistemik modallik turidir. Bu farq van der Auwera va Plungian xaritasidagi ishtirokchi-tashqi imkoniyat va epistemik imkoniyat tugunlari o'rtasidagi farqqa to'g'ri keladi.

Semantik-komponent tahlilida har bir ma'no differensial semalar to'plami sifatida tavsiflanadi. Sema – ma'noning eng kichik farqlovchi birligi bo'lib, uning mavjudligi yoki yo'qligi (+/-) ikki birlik o'rtasidagi ma'no farqini aniq belgilaydi. Bu usul can ma'nolarini hamda ularning o'zbekcha muqobillarini bir xil o'lchovda solishtirish va ular orasidagi kesishish nuqtalarini ko'rsatish imkonini beradi. Semantik xarita usuli esa ma'nolarni fazoviy tarzda joylashtirib, qaysi tugunlar bir vosita bilan qoplanishini, qaysilari alohida vositaga ajralishini ko'rgazmali aks ettiradi. Ikki usulning uyg'unlashtirilishi ma'no-shakl munosabatini ham nuqtaviy (sema), ham tizimli (xarita) darajada tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ingliz tilining modallik tizimida can eng chastotali markerlardan biri bo'lib, markaziy modallar guruhiga kiradi. Coates can fe'lini uch ma'no doirasida tahlil qiladi: qobiliyat, root imkoniyat va ruxsat. Muhim jihat shundaki, bu fe'l epistemik (ehtimollik) o'qishiga ega emas, mazkur vazifani ingliz tilida may va might bajaradi.

Qobiliyat can ning markaziy ma'nosi bo'lib, ish-harakatni bajarish qobiliyatining sub'ektda mavjudligini bildiradi (She can swim) va xaritadagi ishtirokchi-ichki imkoniyatga to'g'ri keladi. O'zbek tilida unga -a/-y ol-analitik shakli muqobil keladi: U suza oladi. Root imkoniyat ish-harakatning ob'ektiv shart-sharoit tufayli mumkinligini bildiradi (This can be done) va ishtirokchi-tashqi imkoniyatga mos keladi; o'zbek tilida u mumkin modal so'zi yoki -sa bo'l- qurilmasi bilan ifodalanadi: Buni qilsa bo'ladi. Ruxsat ijtimoiy me'yor asosida ish-harakatga yo'l qo'yilishini bildiradi (You can go

now); o'zbek tilida u ham mumkin yoki -sa bo'l-bilan beriladi: Endi ketsangiz bo'ladi. Bu uch ma'no quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

Qobiliyat ma'nosida ish-harakatni bajarish imkoni sub'ektning ichki xususiyatiga -jismaniy, aqliy yoki o'rganilgan mahoratiga bog'lanadi. O'zbek tilida bu ma'no -a/-y ol-ko'makchi fe'lli qurilma orqali muntazam ifodalanadi: yoza oladi, o'qiy oladi, ko'tara oladi. Bu qurilma harakat fe'liga qo'shilib, sub'ektning shu harakatni bajarishga layoqatini bildiradi va ingliz tilidagi can ning qobiliyat o'qishiga to'g'ri keladi. E'tiborli jihat shundaki, o'zbek tilida qobiliyatning inkori ham shu qurilmaning inkor shakli bilan beriladi: yoza olmaydi, ya'ni layoqatning yo'qligi qayd etiladi.

Root (vaziyatli) imkoniyatda harakatning yuz berishi sub'ektning qobiliyatiga emas, balki tashqi shart-sharoitga bog'lanadi. Ingliz tilida bu ma'no ham can bilan beriladi (You can see the sea from here), o'zbek tilida esa u ko'pincha

mumkin so'zi yoki -sa bo'l qurilmasi orqali ifodalanadi: Bu yerdan dengizni ko'rsa bo'ladi. Bunda imkoniyatning manbai sub'ektdan tashqarida muhit, sharoit yoki holatda joylashadi. Shu bois o'zbek tili qobiliyat va vaziyatli imkoniyatni ikki farqli vosita bilan ajratadi, ingliz tili esa ikkalasini bitta can shaklida jamlaydi.

Ruxsat ma'nosida harakatga yo'l qo'yilishi ijtimoiy me'yor, qoida yoki hokimiyatga ega shaxsning irodasiga tayanadi. Ingliz tilida bu ma'no can (norasmiy) va may (rasmiy) o'rtasida taqsimlanadi, o'zbek tilida esa u mumkin, -sa bo'l- hamda ruxsat berildi kabi vositalar bilan beriladi: Kirsangiz bo'ladi, Kirish mumkin. Ruxsat root imkoniyatga yaqin turadi, chunki ikkalasida ham imkoniyat manbai sub'ektdan tashqarida bo'ladi; ular faqat manbaning tabiati ijtimoiy me'yor yoki xolis sharoit bilan farqlanadi.

Coates bo'yicha ma'no	Ingliz misoli	O'zbekcha muqobil	O'zbekcha misol
Qobiliyat (ability)	She can swim.	-a/-y ol-	U suza oladi.
Root imkoniyat (possibility)	This can be done.	mumkin, -sa bo'l-	Buni qilsa bo'ladi.
Ruxsat (permission)	You can go now.	mumkin, -sa bo'l-	Endi ketsangiz bo'ladi.
Imkonsizlik (can't)	That can't be true.	mumkin emas, -a olma-	Bu rost bo'lishi mumkin emas.

1-jadval. «Can» fe'li ma'nolari va o'zbekcha muqobillari

Ma'nolar o'rtasidagi munosabatni aniqroq ko'rsatish uchun ular differensial semalar bo'yicha tahlil qilindi. To'rtta sema ajratiladi: [sub'ekt qobiliyati], [tashqi shart],

[ijtimoiy ruxsat] va [so'zlovchi bahosi]. Mazkur semalar asosida can ning ma'nolari va ehtimollik zonasi quyidagicha farqlanadi.

Ma'no	[sub'ekt qobil.]	[tashqi shart]	[ijtimoiy ruxsat]	[so'zlovchi bahosi]
Qobiliyat	+	-	-	-
Root imkoniyat	-	+	-	-
Ruxsat	-	+	+	-
Ehtimollik (epistemik)	-	-	-	+

2-jadval. «Can» ma'nolari va ehtimollik zonasining sema tahlili

Jadvaldan ko'rinadiki, qobiliyat, imkoniyat va ruxsat ma'nolarini [so'zlovchi bahosi] semasining yo'qligi birlashtiradi, ular root sohaga mansub. Ehtimollik zonasi esa aynan shu sema bilan ajralib turadi. Ingliz can fe'li dastlabki uch qatorni qoplaydi, lekin oxirgi qatorga kira olmaydi, bu uning epistemik bo'shlig'ining sema tahlilidagi ko'rinishidir. O'zbek tilida esa har bir qator o'ziga xos vosita bilan ifodalanib, oxirgi qator ehtimol, balki, -dir kabi alohida markerlarga to'g'ri keladi.

O'zbek tilidagi mumkin birligi Coatesning ma'no noaniqligi tushunchasini tekshirish uchun qulay material beradi. Bu birlik bir uchida sof vaziyatli imkoniyatni (Buni qilish mumkin), ikkinchi uchida esa epistemik ehtimollikka moyil o'qishni (U kelishi mumkin) namoyon etadi. Ikki qutb orasida kontekstga ko'ra siljiydigan oraliq holatlar joylashadi, bu esa gradient o'zgarishning yorqin misolidir. Shu bois mumkin birligini yagona, qat'iy ma'noga ega deb emas, balki imkoniyatdan ehtimollikka cho'zilgan ma'no yelpig'ichi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Qiyosiy tahlil to'rt asosiy topilmani beradi. Birinchidan, qobiliyat va imkoniyat o'zbek tilida morfologik jihatdan ajraladi: qobiliyat -a/-y ol- shakli bilan, vaziyatli imkoniyat mumkin yoki -sa bo'l- bilan beriladi, ingliz tilida esa ikkalasi bitta can shaklida birlashadi va ularni faqat kontekst farqlaydi. Bu Palmerning sub'ektga yo'naltirilgan va vaziyatli imkoniyat ajratishi hamda semantik xaritada ishtirokchi-ichki va ishtirokchi-tashqi tugunlar farqi bilan mos keladi. Demak, tillar bir xil semantik makonni turli donadorlik darajasida ifodalaydi. Ikkinchidan, be able to qurilmasi aktualizatsiya belgisiga moyil, o'zbekcha -a ol- shakli ham xuddi shunday: bora oldi jumlası harakatning amalga oshganini, bora olardi esa faqat potensial imkoniyatni bildiradi. Bu parallel ikki tildagi analitik imkoniyat vositalarining funksional yaqinligini ko'rsatadi. Uchinchidan, har ikki tilda epistemik ehtimollik imkoniyatdan alohida vositalar bilan kodlanadi: ingliz tilida bu vazifani may va might, o'zbek tilida -dir,

ehtimol, balki bajaradi. Bu epistemik bo'shliq tipologik o'xshashlik hisoblanadi va Sweetser hamda Nuyts ramkalari asosida izohlanadi. To'rtinchidan, inkorda assimetriya kuzatiladi: can't epistemik imkonsizlikni ifodalay oladi (That can't be true), tasdiq shaklidagi mumkin esa ayrim kontekstlarda epistemiklikka moyil bo'ladi, holbuki tasdiq can epistemik o'qishni qabul qilmaydi. Bu ikki tildagi markerlarning grammatikalizatsiya yo'lida turli bosqichda turishini ko'rsatadi.

Van der Auwera va Plungian xaritasi tahlil natijalarini yaxlit tasavvur etish imkonini beradi. Xaritada can qamrab oladigan uch tugun ishtirokchi-ichki imkoniyat (qobiliyat), ishtirokchi-tashqi imkoniyat (vaziyatli imkoniyat va ruxsat) hamda ularga tutash epistemik tugun ketma-ket joylashadi. Ingliz tilida can dastlabki ikki tugunni bir shaklda birlashtiradi, epistemik tugunga esa yetib bormaydi. O'zbek tilida esa bu makon bo'ylab vositalar taqsimoti boshqacha: ishtirokchi-ichki tugun -a/-y ol-, ishtirokchi-tashqi tugun mumkin va -sa bo'l-, epistemik tugun esa ehtimol, balki, -dir bilan qoplanadi. Shu tariqa bir xil semantik makon ikki tilda turli chegaralar bilan bo'linadi, bu esa xaritaning universal tugunlari til-spetsifik vositalar bilan qanday to'ldirilishini yaqqol ko'rsatadi.

Epistemik bo'shliq hodisasi har ikki tilda o'ziga xos tarzda to'ldiriladi. Ingliz tilida can epistemik ehtimollikni ifodalay olmaganı uchun bu vazifa may va might zimmasiga tushadi: He may be at home jumlası so'zlovchining taxminini bildiradi. O'zbek tilida esa ehtimollik alohida leksik va morfologik vositalar ehtimol, balki so'zlari hamda -dir yuklamasi orqali beriladi: U uydadir, Ehtimol, u uydadir. Demak, ikkala tilda ham imkoniyat va ehtimollik alohida vositalar bilan kodlanadi, biroq o'zbek tilida ehtimollik vositalari leksik jihatdan boyroq va tarqoqroq taqsimlangan. Bu tipologik o'xshashlik ichidagi tafovut modallik maydonining til-spetsifik tuzilishini namoyon etadi.

Aktualizatsiya paralleli mazkur qiyosning eng qiziqarli topilmalaridan biridir. Ingliz tilida

-be able to- qurilmasi o'tgan zamon tasdiq shaklida ko'pincha harakatning nafaqat imkoni, balki amalda ro'y berganini ham anglatadi. O'zbek tilidagi -a ol- qurilmasi tugallangan o'tgan zamonda xuddi shunday xususiyat namoyon etadi: -bora oldi jumlasida harakatning haqiqatan amalga oshganini bildiradi, -bora olardi shakli esa faqat potensial imkoniyatni saqlab qoladi. Bu farq zamon va aspekt kategoriyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, imkoniyatning aktuallashuvi perfektiv kontekstda kuchayadi. Aktuallashuv o'zbek tilida semantik jihatdan qat'iy kodlanganmi yoki bekor qilinishi mumkin bo'lgan pragmatik implikaturami, degan masala hozircha ochiq bo'lib, uni faqat izchil korpus tahlili aniqlashtira oladi. Har holda, mazkur parallel ikki tildagi analitik imkoniyat vositalarining nafaqat semantik, balki funksional-grammatik jihatdan ham yaqinligini ko'rsatadi va keyingi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish belgilaydi.

Inkordagi assimetriya ham diqqatga sazovor. Ingliz tilida can't nafaqat qobiliyat yoki imkoniyatning yo'qligini, balki epistemik imkonsizlikni ham ifodalay oladi: That can't be true jumlasida so'zlovchining propozitsiya yolg'on ekaniga qat'iy ishonchini bildiradi. Tasdiq shakldagi can esa bunday epistemik o'qishga ega emas. O'zbek tilida bu munosabat boshqacha taqsimlangan: mumkin emas birikmasi ham real, ham epistemik imkonsizlikni qamrab oladi, tasdiq shakldagi mumkin esa ayrim kontekstlarda epistemik ma'noga moyillik ko'rsatadi. Bu farq ikki tildagi modal markerlarning grammatikalizatsiya yo'lida turli bosqichlarda turishidan dalolat beradi va inkor

kategoriyasining modallik bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, can fe'lining qobiliyat, imkoniyat va ruxsat ma'nolari o'zbek tilida yagona birlikda emas, balki -a/-y ol-, mumkin va -sa bo'l- vositalariga taqsimlanib ifodalanadi, bu ma'no-shakl assimetriyasidir. Ikkinchidan, Coatesning ma'no noaniqligi apparati o'zbek tilidagi mumkin birligining imkoniyatdan ehtimollikka tomon gradient o'zgarishini tahlil qilishda samaralidir. Uchinchidan, har ikki tilda epistemik ehtimollikning imkoniyatdan alohida kodlanishi muhim tipologik o'xshashlikni tashkil etadi. To'rtinchidan, inkordagi assimetriya ikki tildagi modal markerlarning grammatikalizatsiya darajasidagi farqni ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil zamonaviy modallik nazariyalarining o'zbek tili materialiga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkinligini tasdiqlaydi hamda o'zbek tilida imkoniyat sohasining tarmoqlanganligi va ehtimollik vositalarining boyligini aniqroq namoyon etadi.

Tahlil natijalari nazariy va amaliy ahamiyatga ega. nazariy jihatdan ular modallik tipologiyasiga o'zbek tili materiali asosida hissa qo'shadi va imkoniyat semantik maydonining tarmoqlangan tuzilishini oydinlashtiradi. Amaliy jihatdan esa ular ingliz-o'zbek qiyosiy grammatikasi, tarjimashunoslik hamda chet tili sifatida ingliz tilini o'qitish amaliyoti uchun foydali bo'lib, modal vositalarni bir tildan ikkinchisiga o'girishda uchraydigan ma'no-shakl nomutanosibligini hisobga olish zaruratini asoslaydi.

References:

1. Bybee, J., Perkins, R., & Pagliuca, W. (1994). *The evolution of grammar: Tense, aspect, and modality in the languages of the world*. University of Chicago Press.
2. Coates, J. (1983). *The semantics of the modal auxiliaries*. Croom Helm.
3. Hojiyev, A. (1973). *Fe'l. Fan*.
4. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi*. O'qituvchi.

5. Nuyts, J. (2001). *Epistemic modality, language, and conceptualization: A cognitive-pragmatic perspective*. John Benjamins Publishing Company.
6. Palmer, F. R. (2001). *Mood and modality* (2nd ed.). Cambridge University Press.
7. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili*. Universitet.
8. Sweetser, E. (1990). *From etymology to pragmatics: Metaphorical and cultural aspects of semantic structure*. Cambridge University Press.
9. Van der Auwera, J., & Plungian, V. A. (1998). Modality's semantic map. *Linguistic Typology*, 2(1), 79–124.